



Pedagogical foundations of self-development of future Physical Culture teachers

Azim MAMIROV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2023

Received in revised form

15 June 2023

Accepted 25 June 2023

Available online

15 July 2023

Keywords:

pedagogical technology
of self-improvement
in the process of
professional activity,
teachers of Physical Culture,
pedagogical process.

ABSTRACT

The article discusses the pedagogical foundations of professional self-development of future teachers of Physical Culture. The main aspects include taking into account the individual and age characteristics of students, encouraging their self-improvement in the process of professional activity, as well as providing the opportunity to choose a personal trajectory of self-improvement, taking into account the guidelines for professional development.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5/S-pp11-15>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'zini-o'zi rivojlantirishning pedagogik asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kasbiy faoliyat
jarayonida o'z-o'zini
takomillashtirish pedagogik
texnologiyasi,
jismoniy tarbiya
o'qituvchilari,
pedagogik jarayon.

Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish; jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini takomillashtirishni rag'batlantirish; kasbiy rivojlanish bo'yicha ko'rsatmalarni hisobga olgan holda o'z-o'zini takomillashtirishning shaxsiy trayektoriyasini tanlashni ta'minlash, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik asoslari haqida so'z yuritilgan.

¹Independent applicant, Samarkand State Institute of Foreign Languages

Педагогические основы саморазвития будущих учителей физической культуры

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

педагогическая технология самосовершенствования в процессе профессиональной деятельности, учителя физической культуры, педагогический процесс.

Статья обсуждает педагогические основы профессионального саморазвития будущих учителей физической культуры. Основные аспекты включают учет индивидуальных и возрастных особенностей студентов, поощрение их самосовершенствования в процессе профессиональной деятельности, а также обеспечение возможности выбора личностной траектории самосовершенствования с учетом ориентиров профессионального развития.

Mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom bo'lgan avlodni kamol toptirish hisoblanadi. Zero, bugun dunyo mamlakatlarida keskinlashayotgan globallashuv jarayonlari sharoitida yuksak ma'naviyatli va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash Vatanimiz kelajagini belgilab beruvchi va xalqimizning ezgu maqsadlarini ro'yobga chiqaruvchi eng muhim omillardan biridir. Bu ezgu ishning amalga oshirilishida uning huquqiy asoslari ham yaratilgan bo'lib, keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori va 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni bu sohani yanada rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarning asosiy maqsadlaridan biri ham bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, jismoniy tarbiyaga oid ko'nikma va malakalarga doir tushuncha hamda atamalarni to'g'ri shakllantirishdan iborat.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davlat darajasida ham, jahon darajasida ham raqobatbardosh o'qituvchilarning yangi avlodiga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi.

Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va Jahon ta'lim tizimiga o'tish o'qituvchilar faoliyatining mazmunini sezilarli darajada o'zgartiradi. Oliy ta'lim tizimida jahon andozalari asosida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilariga talabning ortib borishi uzluksiz ta'lim olish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Biroq, o'qituvchilar uchun markazlashtirilgan malaka oshirish kurslarini moliyalashtirishning yetishmasligi o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishning muqobil usullarini izlash zarurligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun o'qituvchining kundalik faoliyatida o'z-o'zini takomillashtirish, mustaqil o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash muhim rol o'ynaydi.

Shunday bo'lsa-da, ta'lim muassasalari o'qituvchilarining aksariyati pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining asosiy vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga o'rganilishi rejalashtirilgan mavzu bo'yicha zaruriy axborotlarni yetkazib berishdan iborat deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonida o'qituvchilar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta'lim jarayonining ta'lim-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilash;

- maqsadga muvofiq ko'zlangan natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash.

Biroq, har qanday takomillashtirish rejalashtirilgan dasturga muvofiq amalga oshirilishi kerak, shuning uchun o'qituvchilar kasbiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini takomillashtirishni rejalashtirishlari va o'z-o'zini rivojlantirish vositalaridan xabardor bo'lishlari kerak.

Shunday ekan, ta'lim muassasalari o'qituvchilarining funksional vazifalaridan biri pedagogik jarayonlarda maqsadga erishish uchun ta'lim jarayoni sub'yekti sifatida o'quvchilarni faoliyatini muvofiqlashtirish va faolligini oshirishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida o'zini-o'zi, o'z faoliyatini, bir so'z bilan aytganda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaradilar, mazkur faoliyat o'z navbatida o'qituvchilar va o'quvchilarning do'stona munosabatlarga asoslangan o'zaro hamkorlikdagi boshqaruv faoliyatini ifodalaydi.

O'zbekistonda sportning rivojlanish tarixi, an'analari, usullari va yo'nalishlari yuzasidan A.Q.Atoev, J.Nurshin, R.Salomov, F.Kerimov, SH.X.Xonkeldiev, J.M.Toshpo'latov, O'.I.Ibroximov, A.N.Abdiev; jismoniy tarbiya darslarini zamonaviy tashkil etish va bo'lajak kadrlarni ilmiy salohiyatli qilib tarbiyalash masalalari K.M.Maxkamjonov, I.A.Qo'shbaxtiyev, L.R.Ayrapetyans, T.S.Usmonxo'jaev, S.S.Xo'jaev, Q.Alimov; milliy sport turlarini rivojlantirish, sport to'garaklarini loyihalash, sayohatlarni tashkil qilish metodikasiga oid izlanishlar T.X.Xoldarov, R.Abdumalikov, R.A.Qosimov, A.Abdullaevlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Pedagogik texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga yetuk olimlar katta e'tibor berib kelmoqdalar (Y. Babanskiy, A. Nisimchuk, X. Selevko, S. Sisoyeva, va boshqalar). Shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, pedagogik texnologiyalar asosan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan. Boshqa tomondan, ishlaydigan o'qituvchilarning (ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining) kasbiy darajasini oshirish masalasi hali ham to'liq o'rganilmagan. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining zamonaviy sharoitda ishlashi bilimlarni doimiy ravishda yangilab turish, pedagogik muloqotni, shaxsiy jismoniy imkoniyatlarni va axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini takomillashtirishni talab qiladi. Bu omillarning barchasi o'qituvchilarni o'z shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish uchun tizimli va uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishda ishtirok etishga undaydi. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish va jismoniy tarbiya o'qituvchilarining oliy o'quv yurtlarida ishlash tajribasini o'rganish, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy mahoratining mavjud darajasi va ularning faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'rtasidagi bir qator qarama-qarshiliklarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Boloniya jarayonida jamiyat va davlatning jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzluksiz ta'lim-tarbiyasiga qo'yilayotgan yuksak talablari va bu masalaga o'qituvchilarning o'zlari tomonidan yetarlicha e'tibor bermayotganligi; o'qituvchilarning kasbiy faoliyat jarayonida o'z-o'zini takomillashtirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o'rganish zarurati va o'z-o'zini takomillashtirishning nazariy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Maqsadi: jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyati jarayonida o'z-o'zini rivojlantirishning pedagogik asoslarini samarali amalga oshirishning pedagogik shartlarini aniqlashdir. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi

takomillashtirishning pedagogik texnologiyasini amalga oshirish quyidagi vazifalar asos bo'ladi: O'qituvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda; jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ish jarayonida o'z-o'zini takomillashtirishga rag'batlantirish; kasbiy takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalarni hisobga olgan holda o'z-o'zini takomillashtirishning shaxsiy trayektoriyasini tanlashni ta'minlash.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish, takomillashtirish motivatsion, faollik, informatsion va operatsion, kommunikativ komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlarning darajasini talab va motivatsion (mavjud kognitiv qiziqish; o'z-o'zini takomillashtirishning muhim ehtiyojlari va motivlari; mavjud bo'lgan ichki motivatsiyaning ma'lum darajasi, ya'ni o'z-o'zini anglash; pedagogik faoliyatga aksiologik munosabat; muhimligini tushunish) bilan baholash mumkin. Kasbiy mahoratni hayot davomida doimiy va muntazam ravishda takomillashtirish, funksional (jismoniy sifatlarni yaxshilash usullari va vositalaridan foydalanish qobiliyati; jismoniy tayyorgarlikni baholash qobiliyati; baholash va o'z-o'zini baholash qobiliyati), nazariy va uslubiy bilimga ega bo'lish. Sog'lom turmush tarzi darslarni o'tkazish shakllari, o'qitishning asosiy usullari, jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish; innovatsion yondashuvlarni bilish, kommunikativ (monolog, dialog va suhbat shaklida muloqot qilish qobiliyati), darslarda imo-ishoralar, mimikalar, pantomimiklardan foydalanish; pedagogik faoliyatda kasbiy atamalardan foydalanish va boshqalar, shuningdek, axborot va operatsion mezonlarni (komputer bilan ishlashda internet vositalari va ofis dasturlari, turli xil ma'lumotlar manbalari, komputer operatsion tizimi, o'quv jarayonida Moodle bilan ishlash qobiliyati) jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi takomillashtirish darajasi past, o'rtacha yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Xulosa

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri bu sohada mutaxassis kadrlar salohiyati sanaladi. Shuning uchun xam jismoniy madaniyat va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi qo'ygan talablarni to'liq bajarishga erishish, shuningdek, mazkur tizimni yuqorida keltirilgan takliflar asosida ma'lum darajada yangi talablar bilan boyitib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 30-31 sonli Qarori. – Toshkent, 2017-yil 3-iyun.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-son Farmoni.
3. E.E.Xurramov, Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil qilish mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. - 144 b.
4. Babanskiy, Y. K. (1987). Intensifikatsiya protsessi obucheniya. [The intensification of the learning process]. Znaniya Muslimov N.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.
5. O.Q.Tolipov, Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya. – T.: Fan, 2004.b – 73-80.

6. N.T.Suhrobovna, (2023). O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN UNUMLI FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(12), 69-72.

7. I.Anvar, (2022). SO'Z BIRIKMASI XUSUSIDA AYRIM QAYDLAR. ZAMONAVIY FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARINING INNOVATSION YECHIMLARI, 3, 34-37.

8. I. Anvar, (2022, October). Tobe Komponentli Qiyosiy Qurilmalarning Struktur Xususiyatlari. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 79-82).